

ICHIMLIK SUVI XAVFSIZLIGI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xodiyeva Aziza Dilshod qizi, magistr,
ORCID ID: 0009-0006-5007-9425
O‘zbekiston Milliy universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni hal qilishning ba’zi ustuvor yo‘nalishlari, ichimlik suvi sifatiga qo‘yilgan talablar, aholining yerosti suvlaridan foydalanishi yuzasidan qonunchilikga o‘zgartirishlar kiritilishi va markazlashtirilgan suv ta’minoti tizimlarini modernizatsiya qilishning zarurati, shuningdek, ichimlik suvi xavfsizligi bo‘yicha tahliliy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zDSt, ichimlik suvi, ichimlik suviga qo‘yilgan talablar, ichimlik suvi xavfsizligi, suv sifati, artizian suvlari.

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые приоритетные направления решения проблемы обеспечения населения чистой питьевой водой, требования к качеству питьевой воды, изменения в законодательстве по использованию подземных вод населением, необходимость модернизации систем централизованного водоснабжения, представлены результаты аналитических исследований безопасности питьевой воды.

Ключевые слова: УЗГОСТ, питьевая вода, требования к питьевой воде, безопасность питьевой воды, качество воды, артезианская вода.

Abstract. This article discusses some priority directions for addressing the provision of clean drinking water to the population, the requirements for drinking water quality, legislative amendments related to the use of groundwater by the population, and the necessity of modernizing centralized water supply systems. It also presents the results of analytical studies on drinking water safety.

Keywords: O‘zDSt, drinking water, drinking water requirements, drinking water safety, water quality, artesian waters.

Kirish. Ichimlik suvi inson salomatligining eng muhim omilidir. Uning deyarli barcha manbalari turli intensivlikdagi antropogen va texnogen ta’sirlarga duchor bo‘lmoqda. Ichimlik suvi sifati muammosi butun o‘tgan davrlar davomida insoniyat jamiyatining ko‘plab jabhalariga ta’sir ko‘rsatdi. Hozirgi vaqtda ichimlik suvi ijtimoiy, siyosiy, tibbiy, geografik, ekologik, shuningdek iqtisodiy muammo hisoblanadi. Keyingi yillarda demografik jarayonlarning o‘ssishi sababli "Ichimlik suvi" to‘g‘risida qonunlar va huquqiy hujjatlar takomillashib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Ichimlik suvi - odamlarning kundalik va maishiy ehtiyojlari yoki oziq-ovqat, ishlab chiqarish uchun tabiiy holatida yoki tozalashdan keyin belgilangan me’yoriy talablarga javob beradigan bo‘lishi shart. Suvning xususiyatlari va tarkibining umumiylikiga qo‘yiladigan talablar, u istemol qilinganda, gigiyenik maqsadlarda ishlatilganda, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi lozim [1].

Bu borada Toshkent shahridagi demografik jarayonlarning rivojlanishi ta’sirida ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojlarning ortishi hamda shaharsozlikning kengayib borishi orqali ayrim infratuzilmalarni rivojlantirishda e’tiborsizliklar sababli shahardagi yangi tashkil etilayotgan hududlarning toza ichimlikka bo‘lgan ehtiyoji to‘g‘ri hisobga olinmay qolmoqda. Shu sababli tadqiqotlarimizda Toshkent shahri Yangi hayot tumani tasarrufidagi ayrim hududlarning quduqlari ichimlik suvi sifati dinamikasi tahlil qilindi.

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashning ekologik huquqiy muammolari mamlakatimiz olimlaridan Y.O.Jo‘rayev, J.T.Xolmo‘minov, Sh.X.Fayziyev, U.T.Ayubov, N.K. Skripnikov, M.M.Nurmatov, D.I.Safarov, F.T.Buranov, H.Sh.Hayitov va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko‘rib chiqilgan. Biroq yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlari suv huquqiy munosabatlarini tartibga solishga bag‘ishlangan. Keyinchalik A.O.Jumanov tomonidan aholini toza ichimlik suvi bilan

ta’minlashning ekologik huquqiy muammolariga oid alohida monografik tadqiqot olib borilgan.

Tadqiqot ob’yekti va metodlari. Toshkent shahrining Yangi hayot tumani Xushnud MFYda aholining aksariyat qismi markazlashtirilmagan ichimlik suvidan ya’ni yer osti quduqlari va artizianlardan keng foydalanayotganligi uchun suvning sifat ko‘rsatkichlarini davlat standartiga (O‘zDSt 951:2011) taqqoslashtirish maqsad qilindi. "Markazlashtirilgan xo‘jalik-ichimlik suvi bilan ta’minlash manbalari, gigiyenik, texnikaviy talablar va tanlash qoidalari" talablariga javob berishi o‘rganildi. Ma’lumotlar laboratoriya sinovlarini o‘tkazish, natijalarni qayta ishlash va ularni standartlar bilan taqqoslash asosida keltirildi.

Natijalar va munozara. Suv biosferaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri va shu bilan birga barcha tirik mavjudotlarning manbai. Suvsiz organik moddalarning mavjudligi va yerdagi hayotning kelib chiqishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu barcha tirik organizmlarning ajralmas qismidir. Suv sutemizuvchilar tanasida 63-68%, quruqlikdagi o‘simliklarning barglarida 75-86% va suv o‘tlarida 98% ni tashkil qiladi.

Suv inson tanasida sodir bo‘ladigan barcha hayotiy jarayonlarga ta’sir qiladi. Uning yordami bilan metabolik reaksiyalarning aksariyati amalga oshiriladi, u tirik hujayralarni tiklash va yo‘q qilishning uzluksiz jarayonini ta’minlaydi. Odamlar 1-1,5 litr suv yo‘qotganda, chanqaganini his qilishadi. Agar odam 6-8% suv yo‘qotsa, organizmdagi metabolizm buziladi, oksidlanish jarayonlari kechikadi, qonning yopishqoqligi oshadi, tana harorati ko‘tariladi, holsizlik, bosh aylanishi va bosh og‘rig‘i paydo bo‘ladi. Agar suv 10% gacha yo‘qolsa, patologik hodisalar qaytarilmas holga keladi va agar uning 21% yo‘qolsa, o‘lim sodir bo‘ladi. Inson tanasini suvdan mahrum qilish uni ovqatdan mahrum qilishdan ko‘ra xavfliroqdir: odam oziq-ovqatsiz 40 kungacha yashashi mumkin, ammo suvsiz qolsa, sakkiz kunda o‘ladi. Suvda o‘ziga hos eriydigan moddalar mavjud bo‘lib, yetarli

yoki ortiqcha miqdordagi minerallar bilan suvdan muntazam foydalanish alohida organlar va tizimlar faoliyatining buzilishiga olib keladi [2].

Yod yetishmasligi (odam organizmga kuniga 100-200 mikrogramm talab etiladi) qalqonsimon bezning buzilishiga olib keladi, natijada, buqoq kasalligi paydo bo'ladi.

Ortiqcha ftoridli suv ichganda (1-1,2 mg/l dan ortiq) flyuoroz rivojlanadi (tishlar yomonlashadi): ularda dog'lar paydo bo'ladi, tishlar tezda yemiriladi va sinadi. Ftorid miqdori yetarli bo'lmagan ichimlik suvi (0,5 litr uchun 1 mg dan kam) boshqa kasallikka (karies) olib keladi.

Ba'zi elementlarning ortiqcha miqdorini o'z ichiga olgan suvdan uzoq vaqt foydalanish kasalliklarga (buyrak toshlari) va hokazolarga olib kelishi aniqlangan.

Aksariyat yuqumli kasalliklar (vabo, TIF isitmasi, paratif isitmasi, dizenteriya, enterit, botkin kasalligi va boshq.) suv bilan tarqaladi. Zootsenozlarning tarqalishiga suv ham sabab bo'lishi mumkin. Aholining ichimlik va maishiy ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan suv sanitariya-epidemiologiya nuqtai nazaridan benuqson bo'lishi kerak. Shu maqsadda ichimlik suvining davlat standartini ishlab chiqilgan, suv sifati ustidan qattiq sanitariya nazorati o'rnatilgan [3].

Toshkent shahri aholi jon boshiga chuchuk suv zaxiralari bo'yicha boshqa viloyatlarga qaraganda Respublikamizda birinchi o'rinda turadi. Ammo aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash hozircha Toshkent shahar tumanlarini to'liq qamrab olmagan.

Ko'pgina tumanlarda yashash joylarini suv bilan ta'minlashning yomonligi va ichimlik suvining sifati to'g'risida doimiy shikoyatlar mavjud. Shu sababli, so'nggi yillarda yuqumli kasalliklarning tarqalishi soni ko'payib, gepatit infeksiyasi darajasi oshib bormoqda [4].

Toza suv inson tanasida: nafas olish uchun kislorodni namlaydi; tana haroratini tartibga soladi; tanaga ozuqa moddalarini singdirishga yordam beradi; hayotiy organlarni himoya qiladi; qo'shimchalarni eritadi; ovqatni energiyaga aylantirishga yordam beradi; metabolizm qatnashadi; tanadan turli xil chiqindilarni olib tashlaydi [5].

Ichimlik suvi butun dunyo standartlari bo'yicha oziq-ovqat mahsuloti sifatida tasniflanadi va u xonadonimizga kirishdan oldin, inson salomatligi uchun xavfsizlikka rioya qilish uchun suv ta'minoti manbasidan laboratoriya sinovlariga qadar murakkab yo'lni bosib o'tadi.

Ichimlik suvi ta'minoti manbasini tanlashda, birinchi navbatda,

tabiiy suvning kimyoviy va mikrobiologik tarkibi sanitariya-gigiena talablariga muvofiq foydalanishga topshirilguniga qadar laboratoriya tahlili asosida baholanadi. Suvning sifati ko'rsatkichlari davlat standarti talablariga javob berishi shart. Tanlangan manbalardagi suvning sifati O'zbekiston Respublikasi davlat (O'ZDSt 951:2011) standartining ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasiga to'g'ri keladigan bo'lishi kerak.

Ushbu tadqiqotlar har kuni aholi salomatligi uchun suvning xavfsizligini tasdiqlash va turli yuqumli kasalliklarning mavjud emasligini kafolatlash uchun laboratoriyalarda tekshiruvdan o'tkaziladi. Shu bilan birga, laboratoriyalarda suv tarkibini o'lchashning standart usullari va ushbu sohadagi sanitariya qoidalariga amal qilinadi. Ichimlik suvi gigiyenik talablar va sifatni nazorat qilish standartiga kiritilgan ko'rsatkichlar bo'yicha suvda: mikroblarning umumiy soni, *Escherichia coli* (*Escherichia coli* (yoki *E. coli*) — bu ko'pincha issiq qonli jonzoatlarning ichaklarining pastki qismlarida uchraydigan bakterialar turi. Lekin ba'zi shtammlar og'ir ovqat zaharlanishlariga sabab bo'lishi mumkin, masalan, *E. coli* O157:H7 shtammi bolalar va qariya odamlar uchun juda xavfli bo'lishi mumkin.) guruhidagi bakteriyalar soni, ta'm, hid, rang, loyqaligi, kalsiy, magniy, azot birikmalarining asosiy tuzlari, suvni zararsizlantirishdan keyin qoldiq xlor aniqlanadi [6].

Shu bilan birga, laboratoriyalarda har oy suv manbalari va suv tarmoqlariga yuboriladigan ichimlik suvining kimyoviy tarkibini og'ir metallar, ftoridlar, xloridlar, sulfatlar va organik birikmalarning tuzlari uchun tahlil qilinadi va yiliga kamida 1–2 marta radiologik ko'rsatkichlar bo'yicha tadqiqotlar o'tkaziladi.

Kimyo muhandislari, bakteriologlar, laboratoriya yordamchilari va namuna oluvchilarning say-harakatlari bilan suv manbalari va suv tarmoqlariga yuboriladigan ichimlik suvining sifatini tekshirganda 45 ga yaqin ko'rsatkichlarni suv ta'minoti korxonalarining markaziy va ichimlik suvini tayyorlash inshootidagi ob'yekt laboratoriyalari asosida nazorat qilinadi. Xlorlash stansiyadagi operator tomonidan suv ta'minoti tizimiga kirishdan oldin qoldiq xlor tarkibi har soatda kuzatib boriladi.

Suv ta'minoti tarmoqlari orqali iste'molchilarga yuborilayotgan ichimlik suvi organoleptik jihatdan xushta'm, kimyoviy tarkibi bo'yicha zararsiz, epidemiologik, parazitologik va radiatsion tarkibi bo'yicha xavfsiz bo'lishi zarur. Ammo hozirgi kunda tabiiy zaxiralarni tejash, salomatligimizga daxldor bo'lgan tabiat ne'matlarini ko'z qorachig'idek asrash, xususan, iste'mol uchun yetkazib berilayotgan ichimlik suvining bizga yetib kelguniga

Jadval 1.

Ichimlik suvi sifatining epidemiologik va parazitologik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Me'yori
I. Epidemiologik ko'rsatkichlar.			
1.	Umumiy mikroblar soni	1 ml suyultirilmagan suvdagi mikroblar soni	100 dan ko'p bo'lmagan
2.	Koli indeks	1000 ml suvdagi ichak tayoqchalari guruhi bakteriyalari	3 dan ko'p bo'lmagan
3.	Esherixiyalar (yangi najasli ifloslanish ko'rsatkichi)	300 ml suvda esherixiyalar soni	Yo'q (agar aniqlansa koli indeks va esherixiyalarga takror sinama olinadi)
4.	Kolifaglar	200 ml suvda yaproqcha hosil qilish birligi (BOE) soni	Yo'q (faqat ochiq suv manbalarida aniqlanadi)
II. Parazitologik ko'rsatkichlar			
1.	Patogen ichak sodda hayvonlari: Lyambliya, sistalar, ichburug' amyobalari, balantidilar	25 ml suvda sistalar	Yo'q (faqat ochiq suv ma'nalarida aniqlanadi)
2.	Gijja tuxumlari	25 ml suvda tuxumlar va lichinkalar soni	Yo'q (faqat ochiq suv ma'nalarida aniqlanadi)

qadar minglab insonlarning mashaqqatli mehnati yotganligini unutmashimiz dardkor.

Ichimlik suvining epidemiologik tomonidan xavfsizligi quyidagi bilvosita ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanadi (1-jadval).

Ichimlik, xo'jalik va texnik maqsadlar uchun ishlatiladigan suvning sifati suvdagi har xil eruvchan va erimaydigan, mineral va organik moddalarning tarkibiga bog'liqdir va suvning fizik, kimyoviy, bakteriologik hamda biologik xossalari yig'indisi (to'plami) bo'yicha aniqlanadi.

Ichimlik suvi sifatiga qo'yiladigan talablar "Ichimlik suvi gigienik talablari va sifatini nazorat qilish" O'zDSt 950:2011 da belgilangan. Ishlab chiqarish korxonalarida foydalaniladigan suvni sifatiga qo'yiladigan talablar turli tarmoq, me'yorlari va texnik shartlar bilan chegaralanadi.

Toza ichimlik suvi tiniq, rangsiz, hidsiz, mazasiz va kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalarsiz bo'lishi kerak. Suv harorati yil davomida mumkin qadar bir tekis bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Suvning tiniqligi uning tarkibidagi suzib yuruvchi moddalarga bog'liq bo'lsa, uning rangliliigi turli eruvchan va erimagan moddalar miqdoriga bog'liqdir. Suvning rangliliigini platina-kobaltli shkala nomli asbob yordamida etalon rangli suv bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Ichimlik suvining rangi 20 grad. dan yuqori bo'lmasligi kerak. Suvning hidi uning tarkibidagi turli gazlar va organik moddalar miqdoriga bog'liq. Suvdagi yoqimsiz hid uning tarkibida tuzlar, o'simlik qoldiqlariga xos bo'lgan chirindi mahsulotlari borligidan dalolat beradi. O'zDSt bo'yicha harorati 20 grad.gacha bo'lgan ichimlik suvini 60 grad.gacha isitilganida hidi ham mazasi ham 2 (ikki) balldan yuqori bo'lmasligi zarur [7].

Tabiiy suvlarning qattiqlik darajasi quyidagicha xarakterlanadi:

1. Yumshoq suv 12 mg.ekv/l
2. O'rta qattiqlikdagi suv 4-8 mg.ekv/l
3. Qattiq suv 8-12 mg.ekv/l
4. Juda qattiq suv >12 mg.ekv/l

Qattiq suv aylanma suv ta'minotiga, bug' qozonlari uchun ayniqsa yaroqsizdir.

Suv tarkibidagi aralashma moddalar quyidagi guruhlariga bo'linishi mumkin: 1. Aralashmagan moddalar; 2. Kolloid; 3. Eruvchan.

Tabiiy suvlarni loyqasi erimaydigan va kolloid holda noorganik (loy, qum va h.k) va organik (balchiq, mikroorganizmlar) hollarida bo'lishi mumkin. Loyqalik yer usti suvlariga xosdir. Daryolar suvining loyqaligi bir necha ming mg/l gacha yetadi. Ayniqsa O'rta Osiyo daryolarida suvning loyqaligi yuqori hisoblanadi. Yer osti suvlari yer usti suvlariga qaraganda bir muncha tiniq bo'ladi.

O'zDSt bo'yicha ichimlik suvidagi erimagan moddalar miqdori 1,5 mg/l dan ko'p bo'lmasligi kerak. Suvning tiniqligi «mutnometr», hozirgi vaqtda «nefelometr» nomli asboblardan biri bilan o'lchanadi. Suvni tiniqligini tubi yassi bo'lgan 30-50 sm balandlikdagi maxsus shisha silindr yordamida ham aniqlash mumkin. Agar silindrdan 2 sm uzoqlikda joylashtirilgan matn silindrdagi suv ustuni orqali ko'rinsa olingan namuna tiniq hisoblanadi. Suv ustuni balandligi sm da o'lchanib, u suvni tiniqligini belgilaydi (2,3-jadval).

Suvning minerallashtirish darajasi quruq qoldiq miqdori bilan aniqlanadi.

Quruq qoldiq bu, suvdagi barcha erimagan moddalarning umumiy miqdoridir. Uni aniqlashda suvning namunasi qaynatilib so'ngra $t=105$ grad.da quritiladi. Qolgan moddalarning og'irligi suvning umumiy minerallashtirish darajasini belgilaydi.

Odatda, loyqaligi kam bo'lgan tabiiy suvlarning quyuq va quruq qoldiqlari miqdori juda yaqin bo'ladi, chunki bunday suvlarda aralashmagan va organik moddalar nisbatan ozdir. Ichimlik suvida quruq qoldiq 1000 mg/l dan ko'p bo'lmasligi zarur.

2-jadval.

Yerosti suv ta'minoti manbalarining suv sifati ko'rsatkichlari (sinflar bo'yicha)

Ko'rsatkichlar nomi	Suv sifati bo'yicha sinflar		
	1	2	3
Loyqalilik, mg/dm	1,5	1,5	10,0
Rang, gradus	20	20	30
Vodorod, (pH)	6-9	6-9	6-9
Temir (Fe), mg/dm ³	0,3	5,0	10,0
Marganes (Mn), mg/dm ³	0,1	1,0	2,0
Vodorod sulfid (H ₂ S), mg/dm ³	-	-	3,0
Ftor (F), mg/dm ³	0,7	0,7	0,7
Permanganat oksidlanishi, mgO ₂ /dm ³	2,0	5,0	10,0
Ichak tayoqchalari bakteriyalari soni (BGKP)/ 1dm ³	3	100	1000

3-jadval.

Yerusti suv ta'minoti manbalarining suv sifati ko'rsatkichlari (sinflar bo'yicha)

Ko'rsatkichlar nomi	Suv sifati bo'yicha sinflar		
	1	2	3
Loyqalilik, mg/dm	20	1500	10000
Rang, gradus	30	50	100
Hid, ball	2	3	4
Temir (Fe), mg/dm ³	0,3	1,0	3,0
Marganes (Mn), mg/dm ³	0,1	1,0	2,0
Ftor (F), mg/dm ³	0,7	0,7	0,7
Permanganat oksidlanishi, mgO ₂ /dm ³	7,0	15,0	20,0
Ichak tayoqchalari bakteriyalari soni (BGKP)/ 1dm ³	1000	10000	50000
Vodorod, (pH)	6,5-8,5	6,5-8,5	6,5-8,5
Umumiy BPK, mgO ₂ /dm ³	3,0	5,0	7,0

Ichimlik suvi sifatini baholashda quduqlardan suvni noto'g'ri tanlab olish va saqlash suv buzilgan natijalariga olib keladi. O'tkazilgan sinovlar quduqdan olingan suvda mavjud bo'lmagan aralashmalarni aniqlaydi.

Kimyoviy tahlil uchun suvdan namuna olish qoidalariga ko'ra 1. Namuna olishdan oldin quduq 1-2 soat davomida pom-palanadi.

2. Shisha va tiqin tekshirilgandan so'ng kamida 5 marta suv bilan yuviladi.

3. Shishani chetiga quyishdan oldin u suv bilan to'ldiriladi. Keyin ular havo bo'shlig'ini qoldirib, tiqin bilan yopiladi.

4. Agar namunani darhol laboratoriyaga yetkazib berishning iloji bo'lmasa, uni (maksimal 36 soat) muzlatgichda saqlashga ruxsat beriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib Toshkent shahrining Yangi hayot tumani Xushnud MFY aholi xonadonlarida markazlashtirilgan ichimlik suvining sifati o'rganildi. Umuman olganda keyingi yillarda Toshkent shahrining tezlik bilan kengayib borishi ya'ni demografik jarayonlarining tezlashayotganligini kuzatishimiz mumkin. Oqibatda Toshkent shahridagi ayrim tumanlarda (Bektemir, Sergeli va Yangi hayot tumanlari) nazoratining yo'qligi tufayli ko'plab aholi xonadonlarida o'zboshimchalik bilan yer osti quduqlari o'rnatib olinganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu borada Yangi hayot tumanida o'tkazgan tadqiqotlarimizga

ko'ra, aholi 7-8 m chuqurlikdagi quduqlardan suv istemoli uchun foydalanayotganligi aniqlandi. Aholi aynan nima sababdan yer osti suv quduqlaridan, ya'ni markazlashtirilgan suv manbalaridan foydalanmayotganligi surishtirilganda, ularning fikriga ko'ra markazlashgan tarmoqlarning eskirganligi va ayrim hollarda yaroqsiz quvurlar orqali tarmoqqa qo'shiluvchi boshqa suvlar natijasida ifloslanish yoki loyqalanish darajasi yuqori ekanligini bildirishgan.

Demak, aholi har ikkala tarmoqdan bugungi kunda suvni iste'mol qilishi mumkin emasligini bilishmaydi. Biri markazlashgan ichimlik suvi tarmoqlarining yaroqsizligi bo'lsa ikkinchisi yerosti suvlari uchun o'rnatilgan quduqlarning talabga javob bermasligi. Chunki yerosti quduqlari 7-8 metrgacha o'rnatilishi inson hayoti uchun o'ta xavfli sanaladi. Yangi hayot tumanidagi ko'plab mahallalarda haligacha kanalizatsiya tarmog'i to'liq shakllanmagan. Demak, oqova suvlarning yer ostiga oqizilishi turgan gap. Ko'pchilik xonadonlarda hojatxonalar hali ham eski usulda o'rnatilgan. Aholi yerosti suvlari uchun o'rnatilgan quduqlarning chuqurligi eski usuldagi hojatxonalarning chuqurligi bilan tenglashtirilganligini his etsangiz, bu holat o'ta achinarli ekanligini bilish mumkin.

Bir biridan 2 km uzoqlikdagi 5 ta xonadondan olingan namunalarning barchasi O'zDSt 950:2011 talablariga mos

kelmadi. Aksincha, yerusti suv ta'minoti manbalarining suv sifati ko'rsatkichlari sinflar va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha ruxsat etilgan me'yorlardan o'ta darajada yuqori ekanligi qayd etildi.

Aslida ushbu hududlarda aholi yerosti quduqlarini o'rnatishdan maqsad ichimlik suviga to'lov qilmaslik. Bugungi kunda 2023-yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yerosti suvlariga quduqlarni burg'ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 685-son qaroriga ko'ra foydalanish tartibining huquqiy jihatlarini belgilab berilgan [8].

Xulosa va takliflar. Shunday ekan, yerosti quduqlarini tashkil etish jarayoniga O'zDSt 950:2011 "Ichimlik suvi gigienik talablari va sifati nazorat qilish" me'yorlarini ham qo'llashni taqozo etadi. Bundan tashqari, ushbu hududlarda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida tegishli tashkilotlar tomonidan tushuntirish ishlarini olib borish va bu borada OAV da yoritilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qonunchilikda O'zDSt 950:2011 "Ichimlik suvi gigienik talablari va sifati nazorat qilish" me'yorlari yuzasidan qayta ko'rib chiqish va standartlar yuzasidan matnda bugungi kunga qadar rus tilida berilgan matnlarni o'zbek tilida qabul qilish boshqa qatlamdagi aholiga yetib borishning yengil usuli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Искандаров Т.И., Отабаев Ш.Т., Искандарова Г.Т. Коммунал гигиена. Дарслик. - Тошкент. "Янги аср авлоди" нашриёти. 2019 й.
2. Сув ҳуқуқи. Дарслик. Муаллифлар жамоаси. [Water law. Textbook] Ташкент: ТДҶОИ, 2011, 67-88 б.
3. Жуманов А.О. Сувдан фойдаланиш соҳасида ичимлик суви сифатининг муҳофазаси ҳуқуқий таъминланишида экологик меъёрлаштиришнинг аҳамияти // ҚДУ Ахборотномаси. – Нукус, 2016.- №3. –Б.99-100. (12.00.00; №8).
4. Сув Ўзбекистон келажаги учун муҳим ҳаётий ресурс. UNDP Ўзбекистон. –Т., 2007 й.
5. Норбеков О. Сув - ҳаёт манбаи // "Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги" журнали. 2011 йил 3-сон.
6. М.Дўстмуродов, Ф.Тухсанов, Э.А.Рўзиев. Ичимлик сувларининг аналитик мониторинги хусусида. "Таълим, фан ва ишлаб чиқаришда интеллектуал салоҳиятли ёшларнинг ўрни" мавзусидаги анъанавий XII республика илмий-амалий конференцияси материаллари. III-қисм (2015 йил, 9-10 июн). Самарқанд-2015. 142 б.
7. Государственный стандарт Республики Узбекистан Узбекское Агентства Стандартизации метрологии и сертификации. Вода питьевая. Технические условия (O'zDSt 950:2011). Утвержден и введен постановлением агентства «Узстандарт» за № 05-273 от 02.02.2011 г.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yerosti suvlariga quduqlarni burg'ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023 yil 28 dekabr 685-son qarori.